

2021- yilning yanvar-avgust oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, Farg'ona viloyatida jami **4 211,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **109,9** %ni tashkil



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'vicha shakllanadi.

Yirik qurilish
tashkilotlari


10,3

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

68,8

Norasmiy
sektor

20,9




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **3 577** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **452** taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **114,3 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **111,3 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **10,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **115,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **33,7 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.09.2020- yil	01.09.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	3125	3577	114,5
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	829	958	115,6
	Qo'qon	318	354	111,3
	Quvasoy	111	130	117,1
	Marg'ilon	314	348	110,8
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	99	116	117,2
	Qo'shtepa	103	110	106,8
	Bag'dod	158	161	101,9
	Buvayda	123	137	111,4
	Beshariq	82	95	115,9
	Quva	136	153	112,5
	Uchko'prik	169	198	117,2

	Rishton	68	85	125,0
	So'x	41	69	168,3
	Toshloq	132	146	110,6
	O'zbekiston	81	91	112,3
	Farg'ona	95	113	118,9
	Dang'ara	125	140	112,0
	Furqat	70	80	114,3
	Yozyovon	71	93	131,0


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.09.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (26,8 %), Qo'qon (9,9 %) va Marg'ilon (9,7 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **432,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **135,6** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,9** % punktga ko'payib, **10,3** %ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




*Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **28,0 %** i yoki 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,9 m.**, Yozyovon tumanida jami qurilish ishlari hajmining **15,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **55,3 %.**, va Qo'shtepa tumanida esa jami qurilish ishlari hajmining **13,5 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31,3** martaga to'g'ri keldi.*

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,8 %** i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **1,2 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil etgan holda **2 898,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **106,5** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 105,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **60,8 %** yoki **2 562,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **392,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,3 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 391,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,3 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **778,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **30,4 %**ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	4 211,9	109,9	2 562,5
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	921,3	105,3	550,9
Qo'qon	351,1	124,9	190,4
Quvasoy	182,9	100,7	46,5
Marg'ilon	713,9	114,0	531,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	138,7	100,6	45,6
Qo'shtepa	158,3	124,5	121,9
Bag'dod	331,2	119,6	185,5
Buvayda	142,3	143,1	48,1
Beshariq	72,5	125,7	65,8
Quva	151,5	100,0	140,3
Uchko'prik	95,6	100,1	78,2
Rishton	65,5	103,4	35,7
So'x	95,9	100,9	48,4
Toshloq	156,9	100,9	63,9
O'zbekiston	107,1	130,7	89,4
Farg'ona	69,6	77,0	34,3
Dang'ara	233,2	100,1	115,6
Furqat	110,8	120,2	108,0
Yozyovon	113,8	101,0	62,1

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



2020- yil
Yanvar-avgust

2021- yil
Yanvar-avgust



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **8,8 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,7 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,6 %** punktga ko'payib, **65,1 %**ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,3 %** punktga kamayib, **26,1 %**ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,2 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **14,1 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,3 %** (**18,2 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,5 %** (**4,1 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **16,1 %** punktga kamaydi va **11,8 %**ni tashkil etdi. Qolgan **88,2 %**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **16,1 %** punktga ko'paydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.
921,3

Marg'ilon sh.
713,9

Qo'qon sh.
351,1

Bag'dod t.
331,2



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (921,3 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (713,9 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (351,1 mlrd. so'm), hamda Bag'dod t. (331,2 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Ijr : O'.Umarov
Tel.: (73) 249-87-26
(73)-241-98-42